

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GVARDIYA SI  
HARBIY-TEXNIK INSTITUTI**



**“MILLIY GVARDIYA HARBIY XIZMATCHILARINI  
HUQUQIY TARBIYALASHNING DOLZARB MASALALARI”  
MAVZUSIDAGI**

**Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi**

**2020 yil 25 dekabr**



**Toshkent-2020**

## **КБК-88.4**

### **Sh-19**

Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarini huquqiy tarbiyalashning dolzarb masalalari // Respublika onlayn ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2021. - 204 bet.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta’minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Har qanday davlatning ijtimoiy rivojlanishi o’sha davlat fuqarolarining, ayniqsa huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining “huquqiy bilimi”, “huquqiy ongi” va “huquqiy madaniyati” bilan bog’liq bo’ladi. Chunki, yuksak darajada rivojlangan huquqiy “bilim-ong-madaniyat”siz huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurish mumkin emas. Yuksak darajadagi huquqiy bilim, ong va huquqiy madaniyat esa huquqiy ta’lim-tarbiyaning mahsuli. Milliy gvardiya tizimi uchun yuksak ma’naviyatli professional kadrlarni tayyorlashda, xususan ularning huquqiy bilimi, ongi va madaniyatini shakllantirishda huquqiy ta’lim-tarbiya asosiy o’rinni egallaydi.

Mazkur to’plam Milliy gvardiya tizimida faoliyat xodimlarining ham keyingi yillarda erishgan yutuqlari e’tirof etiladigan darajada bo’lgani bilan xali bu sohaga olib kiriladigan zamonaviy yangiliklar texnik, huquqiy bilimlar ko’plab kuch va imkoniyat va vaqt talab qilashi va harbiy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish tizimiga innovatsion yangiliklarni olib kirish yuzasidan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishga bag’ishlangan maqolalarni o’z ichiga olgan.

**Mas’ul muharrir:** p.f.d., professor Akramova Sh.A.

**Tahrir hay’ati:** p.f.d., professor Mahmudov R.M.  
p.f.b.f.d. (PhD) Alimardonov Z.Sh.  
p.f.b.f.d. (PhD) Ikmatullaev G’.Z.

To’plamga kiritilgan ma’lumotlarning to’g’riligi va aniqligi uchun mualliflar mas’ulligi belgilangan.

© O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti,  
2021

муҳофаза қилувчи органлар ходимлари ахлоқий-руҳий тайёргарлигининг илмий-назарий асослари.....	
<b>Эрназаров А.А.</b> Ҳарбий хизматчиларнинг касбий деформациясини олдини олишда ҳуқуқий маданиятнинг роли.....	110
<b>Жўраева С.Н., Турсунов Б.С.</b> Ҳарбий хизматчиларда ҳуқуқий онг ва маданиятни шакллантиришнинг муҳим шартлари.....	115
<b>Махкамов Э. М.</b> Ўзбекистонда жамоат хавфсизлигини таъминлашда ички кўшинлар фаолиятининг ҳуқуқий асослари.....	119
<b>Saitkulova N.R.</b> Huquqiy madaniyatini shakllantirishda o'rtasrlar sharq mutafakkirlari ma'naviy merosining roli.....	124
<b>Razakova Sh.D.</b> Yoshlarda huquqiy madaniyat va ongni shakllantirishda fuqarolik tarbiyasining ahamiyati.....	130
<b>Муталипова М.Ж.</b> Ёшларда фидойлик фазилатини шакллантиришда танқидий фикрлашнинг аҳамияти.....	141
<b>Жўраева С.Н., Турсунов Б.С.</b> Релаксацион машғулотларнинг курсантлар таълим олишига таъсири.....	145
<b>Vaqoyev Sh.H.</b> Milliy gvardiya organlari faoliyatining huquqiy asoslari va covid-19 pandemiyasi davridagi ro'li .....	150
<b>Жўраева С.Н., Юнусходжаев З.Ш.</b> Курсантларда ҳуқуқий-психологик саводхонликни шакллантиришнинг роли.....	155
<b>Iminov A.A., Suyundikov L.A.</b> Yoshlarda huquqiy madaniyat, inson huquqlari va erkinliklariga nisbatan hurmat munosabatini shakllantirish	162
<b>Исамова П. Ш.</b> О подготовке студенческой молодежи к семейной жизни.....	167
<b>Umirova D.K.</b> Important foundations of the formation of legal culture in young people.....	172
<b>Тўрахонов Ш.Ж.</b> Ҳарбий оилаларда психологик иқлимнинг фарзанд камолотига таъсири.....	179
<b>Qurbonova O'U.</b> Yoshlarda huquqiy madaniyat, inson huquqlari va erkinliklariga nisbatan hurmat munosabatini shakllantirishda muqobil didaktik tizimlardan foydalanish istiqbollari.....	183
<b>Жунайдуллаев М.А.</b> Ёшларда ҳуқуқий маданият, инсон ҳуқуқлари ва эркинликларига нисбатан ҳурмат муносабатини шакллантириш.....	191
<b>Jamolova N. Q.</b> Yoshlarda huquqiy madaniyat, inson huquqlari va erkinliklariga nisbatan hurmat munosabatini shakllantirish.....	195

1. “Ўзбекистон республикаси олий ҳарбий таълим муассасаларига танлаш тартиби ва қабул қилиш қоидалари тўғрисидаги Низомни тасдиқлаш” тўғрисидаги қарори. Тошкент 2014 й

2. Шарафутдинова Х.Г. “Низоли вазиятларда муаммоларни конструктив ечимини топиш йўллари”, Онлайн Республика илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами, 2020 йил 29 июнь, Тошкент, 45-48 бетлар.

## **YOSHLARDA HUQUQIY MADANIYAT, INSON HUQUQLARI VA ERKINLIKLARIGA NISBATAN HURMAT MUNOSABATINI SHAKLLANTIRISHDA MUQOBIL DIDAKTIK TIZIMLARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI**

*Qurbonova O'lmas Usmonovna*  
*Buxoro davlat universiteti,*  
*Pedagogika kafedrasi katta o'qituvchisi*

Jahonda fan va texnikaning rivojlanishi, axborot texnologiyalarining hayotga jadal sur'atda kirib kelishi ta'lim jarayonlarini pedagogik jihatdan texnologiyalash, o'qitishning integratsiyalashtirilgan shart-sharoitlarini takomillashtirishga bo'lgan talabni kuchaytirmoqda. Bunda turli fanlar yoki mavzularni integratsiyalash bilan birga, o'qitish texnologiyalari, shakllarining o'zaro uyg'unlashuviga alohida e'tibor qaratilib, turli xalqlarning tarixiy-milliy ta'limga oid yondashuvlaridan samarali foydalanish orqali ilg'or metodlarni joriy etish tendensiyalari kuzatilmoqda.

Dunyodagi yetakchi ilmiy tadqiqot muassasalari pedagogik integratsiyaning ob'ektiv asoslari, omillari va toifaviy tavsifini belgilash, morfologik va instrumental-uslubiy tasvirini aniqlash, pedagogik integratsiyani texnologik ta'minlash vositalarini ishlab chiqish, milliy va zamonaviy interfaol ta'lim-tarbiya metodlari va texnologiyalarining xususiyalari, o'qitishdagi turli xil muqobil yondashuvlarning tashqi va ichki omillariga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur

ilmiy izlanish natijalari o'quv fanlarini o'zaro optimallashtirish, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish samaradorligini oshirish, ta'lim sifatini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini modernizatsiyalash, yangi avlod darsliklarini yaratish, ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, zamonaviy asbob-uskunalar, texnika vositalari, kompyuterlar bilan ta'minlash, o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar o'qitishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarini samarali qo'llash imkoniyatlarini kengaytirmoqda. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "ta'lim sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish kompetentligini kengaytirishni ta'minlovchi zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish, o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish" [1] kabi vazifalar belgilangan. Bu borada o'qitish metodlarini milliy-tarixiy va zamonaviy pedagogik texnologiyalar uyg'unlashuvi asosida takomillashtirish, milliy va xorijiy tarbiya texnologiyalarining o'zaro qiyosiy tahlil qilish orqali tarbiyaviy faoliyatni loyihalash hamda amalga oshirishga yo'naltirilgan texnologik bosqichlar, pedagogik shartlarni aniqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

XXI asrda xorijda muqobil didaktik tizimlar rivojlanishining boshlanishi, eski maktab tizimidan yangicha dunyoqarash tizimiga o'tishga qaratilgan jarayon umuminsoniy va chinakam insoniy tarbiyaga ko'maklashadi. Bunday sharoitda ta'limda muqobil yondashuvlar paradigmasi keng aniqlana boshlandi, bu muayyan omillar, xususan:

- talabga javob bermaydigan ta'lim tizimidagi islohotlarni talab qiladigan iqtisodiy shart-sharoitlar o'zgardi;

- antropologiya, genetika, ijtimoiy psixologiya, sotsiologiya kabi fanlarning jadal rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan integratsiya ta'limni tashkil etishning maqsadi, vazifalari, mazmuni, usullari va shakllari

to'g'risidagi qarashlarning, didaktik g'oyalarning o'zgarishiga olib keldi;

- pedagogikadagi bir qator yangi pedagogik tushunchalar, an'anaviy ta'lim nazariyasi va amaliyoti, bola shaxsini o'rganishga chuqur qiziqish, muqobil yondashuvlarni yaratishdagi muammolar;

- maxsus ta'lim makoniga aylangan tanlangan yangi maktablarda muqobil didaktik tizimlardan foydalanish uchun ta'lim islohotlarini amalga oshirishga qaratilgan amaliy urinishlar [2].

Muqobil uslubiy manbalar sirasiga didaktik g'oyalar, birinchi navbatda, jamiyat ma'naviy hayotining asosiy xususiyatlariga xos shaxs qobiliyatlarini rivojlantirish, uning ijodiy faoliyatga intilishi, sub'ekt-sub'ekt munosabatlarini produktiv kengaytirish. Uning mohiyatini o'z-o'zidan istisno etuvchi asosiy gumanistik salohiyat sof texnokratik ta'limot, shu bilan birga ijtimoiy tamoyillarni keltirish mumkin. Shuning uchun ham bugungi kunda xalq ta'limida muqobil g'oyalarga qiziqish ortmoqda. Bu esa, bir tomondan, shaxsdagi o'z-o'zini anglash, mustaqillik va individuallikni rivojlantirish maqsadiga qaratilsa, boshqa tomondan, uning turli ijtimoiy jamoalarga integratsiyalashuvida (sinf, etnik guruh va boshqalar) namoyon bo'lmoqda. Muqobil didaktik g'oyalarning konseptual qoidalari va qadriyatlari bir-biriga bevosita bog'liqdir. Bundan tashqari, ta'limiy qadriyatlarni vaqt o'tishi bilan o'zgartirish ehtiyoji, tarbiyaning qadriyatli yo'nalishlari hamisha shaxs va uning madaniyati, ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish va o'z-o'zini rivojlantirishga qaratiladi. Buning uchun o'qituvchilar "qolip" va stereotiplarni, dogmatizm va avtoritarizmdan voz kechib, har bir o'quvchiga umuminsoniy qadriyat sifatida qarashlari lozim. Shu nuqtai nazardan zamonaviy didaktik izlanishlar o'qituvchining o'quvchilarni tadqiqotchi pozitsiyasiga qo'ya olishi, odatdagi o'quv bilimlari doirasini kengaytirish qobiliyatiga tayanishi zarur. Bu zamonaviy o'qituvchining o'ziga bog'liq bo'lib, u yoki bu muqobil didaktik g'oyani o'quv jarayoniga tadbiq etish orqali jahon pedagogikasining zamonaviy mahsuldor g'oyalarini o'zlashtirish ehtiyojini yuzaga keltiradi.

XXI asr pedagogik tafakkurining o'ziga xos xususiyatlaridan biri ta'lim jarayoni nazariyasi yaxlit ta'lim jarayonining muhim qismi

sifatida tasavvur qilinadi. Uning asosiy jihati maktab jamoasi hayotini pedagogik tashkil etish - ta'lim jarayonining yetakchi g'oyasi o'quvchini hayotga faol va samarali munosabatning ijtimoiy tajribasini to'plash sifatida aniqladi. Ta'lim jarayonining bu qarashini amalga oshirish ijtimoiy yo'naltirilgan o'quv faoliyatini aks ettirishi, o'quvchining mustaqilligi va o'z - o'zini faollashtirishi, maktabdan tashqari tabiiy, ijtimoiy, sanoat va madaniy muhitiga kirishini talab etadi. O'rganishni hayot bilan bog'lash g'oyasi madaniy-antropologik yo'nalishdagi nazariyotchilar tomonidan "mehnat maktabi", "hayot maktabi" tushunchalari kiritildi. Shu bilan birga, ular uchun kognitiv (reproduktiv va ijodiy) faoliyat ustuvor bo'lib, o'qitish "maktab tadqiqotlari" deb ta'kidlangan, o'quv va amaliy tadbirlar bilim, ko'nikma, manfaatlarini rag'batlantirish, o'quv materialini sifatli o'zlashtirishning didaktik vositasi sifatida qaraladi, ya'ni "tirik bilim", "o'lik kapital" emas.

Mohiyatan, ta'lim-tarbiya jarayonining antinomiya (antinomiya - bir xil ob'ekt haqidagi qarama-qarshi bayonotlar mantiqan teng asosga ega bo'lgan va ularning haqiqati yoki yolg'onligini qabul qilingan paradigma doirasida, ya'ni teng darajada tan olingan haqiqiy pozitsiyalar o'rtasidagi ziddiyat) shaxsning shaxsga aylanishi bu jarayonda "vujudga kelishi" nuqtai nazaridan uning "madaniyatga kirishishi" amaliyoti va "jamiyatga kirishish" amaliyoti ochib beriladi. Bu ziddiyatni bartaraf etishga urinish sifatida S.T.Shatskiyning "hayotni o'rganish va unda ishtirok etish" g'oyasini keltirish mumkin. G'oyaning pedagogik mohiyati shaxsni o'qitishning shaxsiy va ijtimoiy qadriyat motivatsiyasiga, tadqiqot va hayotiy-amaliy xarakterdagi bilish faoliyatiga yo'naltirishni taqozo etadi. G'oyani ta'lim jarayonida amalga oshirish mohiyatan, pedagogik yo'naltirilgan va o'quvchining "shaxsiy tajribasini qayta tashkil etish" ni ta'minlovchi - shaxsning ta'lim muhitida o'z-o'zini rivojlantirishning tabiiy jarayoni (rag'batlantiruvchi va rivojlantiruvchi imkoniyatlarga boy) sifatida ishlab chiqishni talab etadi.

Shaxslararo munosabatlarni ilmiy aks ettirish bilan bog'liq bo'lgan ta'lim jarayoni nazariyasi mustaqillik yillarining didaktik izlanishlarida sezilarli darajada dolzarb ahamiyat kasb etdi. Ta'lim

jarayoni sub'ektlari o'rtasidagi munosabatlarning interfaol, intersub'ektivligi samarali o'qitish va o'rganishning zarur sharti sifatida e'tirof etildi. O'qitish amaliyotida yangicha tashkiliy shakllar yuzaga keldi va o'qitish jarayonida tabiiy ravishda talabalar o'rtasida jamoaviy, o'zaro qiziqish va ehtiyojlar asosida bilim berish, shaxslararo munosabatlarni rivojlantirish bilan boyitish ko'zga tashlanmoqda. Ta'lim - bilish, o'zaro ta'sirni tashkil etish, shaxsning rivojlanishi va ma'naviy va axloqiy "individualligi" o'rtasidagi integratsiya asosiga quriladi. Pedagogika ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'zaro munosabatlarini tashkil etish, ijtimoiy munosabatlarni tarbiyalash nuqtai nazaridan ko'rib chiqishga harakat qilinmoqda. Jamoaning ma'naviy-axloqiy sifatlari, shaxs axloqi, ijodkor shaxsni tabiyalash sifatidagi bilimlar bilan boyitilmoqda.

Pedagogikada muqobil g'oyalarning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri shaxsning erkinlikka ega bo'lishidir, bu esa unga izlanishlar jarayonida yordam beradi, "yaxshilik va yomonlik nima? Men uchun nima mukammal, harakatmi? Men odamlarga nima uchun bunday munosabatda bo'laman?", va hokazo. Ta'limning madaniy va ijtimoiy institut sifatida ahamiyati ta'lim jarayonining umumiy ko'rinishida shaxsni madaniyat (inkulturatsiya) va jamiyat (ijtimoiylashuv) ga "kirish" ning maqsadli, uyushgan jarayoni sifatida qaralishidir. Umumiy ta'lim maqsadlari va uning mazmuni ta'lim jarayonini belgilovchi asosiy omillardir. Umumiy pedagogik tamoyillar ta'lim-tarbiya jarayonida shakllantiruvchi funksiyani amalga oshirish sharti - mezoni sifatida namoyon bo'ladi. Ta'lim jarayonini tushunish bilan bog'liq yetakchi tendensiyalarda o'z-o'zini o'rganish jarayoni (moddiy maqsad) bo'lishga intilish; bolaning tabiiy layoqati va qobiliyatlarini (rasmiy maqsadlar) o'z-o'zini rivojlantirishga intilish jarayoniga e'tibor qaratiladi. Bu tendensiyalar shaxsning o'z-o'zini namoyon qilish va rivojlanish darajasi ta'lim-tarbiya jarayonini pedagogik boshqarishda faoliyat ko'rsatish tamoyilining qanchalik samarali amalga oshirilganligi bilan belgilanadi [3].

Pedagogikada yana bir muhim muqobil g'oya talabalarning madaniyatini doimiy ravishda o'stirish faqat kitoblar (bilim) yoki san'at



(his-tuyg'ular) orqali emas, balki turmush jarayonida shaxslararo munosabatlar, ya'ni o'qituvchidan o'quvchiga, talabadan o'quvchiga va hokazo orqali rivojlantirishga diqqat qaratiladi. Madaniy uzviylikning bunday yo'nalishi barcha zamonaviy maktablarda o'quv faoliyatining asosiy mazmunini tashkil etadi. Ta'lim esa, hayotni loyihalashtirishning o'ziga xos vositasiga aylanadi, bu o'sib, rivojlanib borayotgan insonning yuksak darajaga ko'tarilishiga yordam beradi.

Aytish mumkinki, bolaning manfaatlaridan kelib chiqqan holda bunday tayyorlangan muhitni pedagogik jihatdan tashkil etish, har bir bolaning ma'naviy salohiyatini to'la ochib berishga erishish uchun shart-sharoitlarni ta'minlash uchun xizmat qiladi, bu esa oxir-oqibat baxt-saodatga erishishga olib keladi. Ta'lim muassasasining ta'lim maskanida barcha shart-sharoitlarni yaratishi o'quvchilarning shaxs sifatida hayotiy ehtiyoj, tafakkur va ijodkorligiga, o'zini faol namoyon qilishiga ko'maklashadi. Talabalarning hayot faoliyatini maxsus tuzishdan voz kechish zarur, chunki ularning o'z tashkiloti mavjud (talabaning har qanday faoliyati har doim tuzilgan bo'lib, o'z noyob tuzilishi va hayotining muayyan segmenti vakili). Haqiqiy ta'lim jarayoni uchun har doim maxsus joy mavjud bo'lib, maktab o'quvchilarining hayotiga o'qish-o'rganish kiritilishi, unda o'quvchilar o'zlarining xohish-istaklari va yangi narsalarga intilishlari bilan ishtirok etadilar.

Bularning barchasi insonparvarlik g'oyalariga mos keladi, ya'ni bu jarayon har qanday shaxsning shaxsiy o'sishi va ijodkorlik faoliyati yo'nalishiga qaratiladi.

Favqulodda holatlar. Bu esa didaktikada ta'lim jarayonida o'quvchining sub'ektivligini ro'yobga chiqarish bilan bog'liq g'oyalarga to'la amal qiladi. O'z salohiyatini ro'yobga chiqarish shaxsga quyidagi yutuqlarga erishishiga yordam beradi: 1) shaxsning shaxsiy faoliyatining ob'ektiv va sub'ektiv natijasi sifatidagi mustaqilligi; 2) talabaning imkoniyatlari va qobiliyatlarini bilvosita rivojlantirish orqali o'z-o'zini faollashtirish uchun motivatsiya; 3) o'z hayot faoliyatini tashkil qilishga intilish; 4) atrofdagi dunyoni yetarli idrok qilish; 5) jamiyat bilan aloqaga bo'lgan shaxsiy ishonch.

Ta'lim har bir o'quvchiga erkin ijodiy rivojlanishi uchun eng qulay shart-sharoitlarni ta'minlay oladigan uyushgan faoliyat bo'lishi kerak.

Ta'lim falsafasidan ma'lumki, pedagogik jarayonda ikki asosiy yondashuv mavjud: avtoritar (shaxsiy harakatlar bu yerda pedagogik ta'sirning passiv ob'ekti sifatida) va insonparvar (ta'lim tizimi o'quvchining o'ziga moslashtiriladi, natijada u o'z taraqqiyotining sub'ekti sifatida faoliyat ko'rsatadi). Bu muqobil ta'limga tegishli ikkinchi yondashuv hisoblanadi, o'quvchilarning fazilatlarini va qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy-madaniy va texnologik taraqqiyot tashabbuskorlari bo'lishga imkon beradi [2]. Yuqoridagi ikki yondashuv ta'lim sohasidagi quyidagi paradigmalarni belgilaydi: pedagogik an'anaviylik va muqobil pedagogika, amaliyot shuni ko'rsatadiki, bola shaxsini tarbiyalash va rivojlantirishda yangi (birinchi galda g'ayrioddiy) g'oyalarni tasdiqlashga to'liq hissa qo'shadi. Bu ta'limni insonparvarlashtirishning hozirgi bosqichida belgilangan asosiy maqsad bo'lib, maktab va o'quvchilar jamoasining erkin va xilma-xil madaniy-ma'rifiy muhit, kattalar va bolalar o'rtasidagi demokratik munosabatlar tizimi, ochiq eshiklar kuni, har bir o'quvchi uchun erkin o'z dasturlarini tanlash va o'rganish rejasi (kelajakda) va boshqalar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yosh avlodda huquqiy madaniyat, inson huquqlari va erkinliklariga nisbatan hurmat munosabatini shakllantirishda:

-ta'lim jarayonida o'quvchining erkin faoliyatini uyushtirish, ta'lim jarayoni ishtirokchilari manfaatlari va maqsadlaridan kelib chiqib o'quv mavzusini atrof-muhit bilan o'zaro bog'lash juda muhimdir;

-tashabbus, erkin ijodiy izlanish xarakteridagi nostandart yondashuvlarni hisobga olgan holda o'quvchilarni muammoli xarakterdagi masalalarni yechishga tayyorlash;

- xilma-xil o'qitish uslublari, bilimlarni taqdim etish usuli, o'quvchilarga ta'lim berish sifati uchun javobgarlik, tajriba orttirish;

- o'qitishda insonparvarlik hamda oqilona yondashuv uyg'unligi, ta'limga umumiy insonparvar munosabat va ta'limning ijtimoiy foydaliligini anglatish;

- “ochiq ta’lim”, unda o’quvchilar o’z faoliyatlarini o’zgartira olish imkoniyati va o’quv dasturlarini ehtiyoj va mayllariga ko’ra erkin tanlash huquqiga ega bo’lishi.

Shunday qilib, muqobil mashg’ulotlarda ta’lim jarayonining didaktik tarkibiy qismini quyidagicha amalga oshiriladi:

- erkin bilish faoliyati tamoyilga asoslanadi o’quvchilarni rivojlantirish, ular bilan bog’liq holda bilimlarni uzatmaydi, balki, rivojlantiruvchi ularni, dunyoga o’z tadqiqot munosabatini shakllantiradi;

- o’quv jarayoni har bir o’quvchining faolligi va o’z-o’zini faollashtirishini, maqsad va akademik yo’nalishga mustaqil intilishini rag’batlantirish maqsadida tashkil etiladi;

- o’quvchilarga madaniyatni singdirish uchun barcha sharoitlarni yaratish, ularning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi va madaniy identifikatsiyasi va yuqori malakali mutaxassis bo’lishiga harakat qilish (ya’ni shaxs sifatida o’z-o’zini anglash);

- o’quvchilarning ruhiy barqarorligini ta’minlash, shu jumladan qiziquvchanlik, faollik, dilkashlik, qiziqish, ijod qilishga intilish, ijodni sevish kabi xislatlarni rivojlantirish;

- bolalar ijodini tan olish, o’z-o’zini qadrlashni o’rgatish, talabalar faoliyatini, shu jumladan shaxsiy va davlat manfaatlarini o’rtasidagi munosabatlarni rivojlantirish;

-sinfda har bir o’quvchining erkin faoliyati uchun barcha imkoniyatlarni ta’minlaydigan maxsus muhit yaratish;

- o’qituvchi-talaba faoliyatini demokratik va samarali munosabatlar bilan to’ldirish;

- shaxsni har tomonlama aqliy rivojlantirish mas’uliyatli, fikrlaydigan va his-tuyg’u va did madaniyati rivojlangan shaxsni yaxlit shakllantirishga qaratilgan muqobil didaktik tizimlarni yaratish;

-oliy ta’lim talabalarini o’z sohalarida to’laqonli mutaxassis va tadqiqotchi bo’lib yetishtirishga yo’naltirish va tarbiyalash;

-nazorat va ta’limda o’qitishni turli shakllarda amalga oshirilishi ma’ruza, seminar, guruh topshiriqlari, pedagogik topshiriqlar tizimi va

proseminar va magistrlik dissertatsiyalarini tayyorlashni nazorat qilish va innovasion pedagogik tadqiqotlar bilan tanishtirib borish va h.

- jamiyatning barcha o'zgarishlari talabidan kelib chiqib kelajak ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va ularga bolalarni yetarli darajada tayyorlash va boshqalar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5712-son Farmoni.- O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 29.04.2019 y., 6/19/5712/3034-son, 2019 y.

2. Зиннатова, Д.М. Альтернативные дидактические системы за рубежом (XX в.) /Д.М. Зиннатова, А.А. Валеев. - Казань: Изд-во «Отечество», 2013.- 184 с.

3.Сурина (Стельник), В.В. Коммуникация как смысловой аспект социального взаимодействия / В.В. Сурина // Меняющаяся коммуникация в меняющемся мире-8: сб. ст. / отв. ред. И.С. Бессарабова. – Волгоград, 2014.

## **ЁШЛАРДА ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТ, ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИ ВА ЭРКИНЛИКЛАРИГА НИСБАТАН ҲУРМАТ МУНОСАБАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ**

*Жунайдуллаев Мэлс Аслиддин ўғли*

*Мустақил изланувчи, Бухоро давлат университети*

*Ҳарбий таълим факультети*

**Аннотация:** Мазкур мақолада ёшларда қандай қилиб ҳуқуқий маданиятни ривожлантириш йўллари борасидаги фикрлар муҳокама этилган. Шунингдек, мақолада ёшларнинг инсон ҳуқуқ ва эркинликларига нисбатан ҳурмат муносабатини шакллантириш ҳақидаги фикрлар ёритилган.